

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI
QURILISH FAKULTETI
BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI KAFEDRASI

Qurilish fakulteti dekani:
_____ dots. A.To‘xtabaev
" ___ " _____ 2019 y.

Diplom loyiha ishiga
TUSHUNTIRUV YOZUVI

Mavzu: Uychi tunani Do‘stlik MFY xududida O.Abdullayevaga qarashli 100 o‘rinli xususiy maktabgacha ta‘lim muassasasi binosini loyihalash

Bajardi: _____ S.Xayitov

Diplom loyiha ishi rahbari: _____ dots. A.Rahimov

Kafedra mudiri: _____ dots. X.Alimov

Namangan – 2019 y.

Mundarija

Kirish	3
I. Qurilish me'morchiligi	6
I.1. Uychi tunani Do'stlik MFY xududida O.Abdullayevaga qarashli 100 o'rinli xususiy maktabgacha ta'lim muassasasi binosini loyihalash uchun umumiy ma'lumotlar.	6
I.2.Bosh reja	6
I.3. Hajmiy-rejaviy echim	7
I.4.Konstruktiv yechim	7
II. Hisob konstruktiv qism	18
Uychi tunani Do'stlik MFY xududida O.Abdullayevaga qarashli 100 o'rinli xususiy maktabgacha ta'lim muassasasi uchun mo'ljallangan ko'p bo'shliqli plitani hisoblash	18
III. Qurilishni tashqil etish va rejalashtirish	32
Loyihalanayotgan bino qurilishi uchun umumiy mehnat sarfi odam/kun, mashinalarga bulgan talab mash/kun va umumiy materiallar sarfini aniqlash jadvali	32
IV. Qurilish iqtisodiyoti	40
Loyihaning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari	53
V. Hayot faoliyati xavfsizligi	54
Qurilish jarayonida g'isht terish ishlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi	54
VI. Atrof muhit muhofazasi	58
Qurilishi jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni bartaraf etish chora -tadbirlari	58
VII. Xulosa va tavsiyalar	62
VIII. Foydalaniladigan adabiyotlar	63
IX. Ilovalar	68

Kirish

Mustaqillik yillarida respublikada milliy ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan va jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining muvaffaqiyatli joriy etilishi natijasida mamlakatda noyob uzluksiz ta'lim tizimi barpo etildi. Maktabgacha ta'lim sohasi mazkur tizimning ilk bo'g'ini hisoblanadi va butun ta'lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo'lgan – barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyat samaradorligini oshirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan yillar davomida 459 ta maktabgacha ta'lim muassasasi mukammal ta'mirlandi va zamonaviy talablarga mos ravishda jihozlandi. Shu bilan birga, bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlari va o'quv-tarbiyaviy rejalariga qo'yilgan davlat talablarini takomillashtirish dolzarb masalaligicha qolmoqda. Aksariyat maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamon talablariga javob bermaydi. Bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish ko'rsatkichi hamon pastligicha qolmoqda.

Mavjud muammolarni amaliy bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Dastur asosida quyidagi keng ko'lamlı kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- ✓ bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart-sharoitlar yaratish;
- ✓ maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish;

- ✓ 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlash. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun jami 2.2 trillion so'm mablag' ajratilishi ko'zda tutilmoqda.

Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilarga erishiladi:

- ✓ yuqori sifatli maktabgacha ta'limni ta'minlash, bolalarni sifatli maktabga tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlarni joriy etishga;
- ✓ bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo'lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashqil etishga;
- ✓ 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlashni tashqil etishga;
- ✓ maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini 50 ta yangi qurilish hamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish va 983 tasini mukammal ta'mirlash orqali kengaytirishga; qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar badal to'lovini 30 foizgacha kamaytirishga;
- ✓ bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovini 1,5 barobar oshirishga.

Dasturning samarali amalga oshirilishi unda ko'zda tutilgan ko'rsatkichlar ijrosining borishini tizimli monitoring qilib borish orqali davlat organlarining doimiy nazoratida bo'ladi. Qarorning amalga oshirilishi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida respublikamizning uzluksiz ta'lim tizimini yanada isloh qilish borasidagi rivojlanish yo'lining uzviy va bosqichma-bosqichligini ta'minlaydi.

Prezidentning “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilinganidan keyin davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy bolalar bog‘chalari ochish uchun qator imtiyozlar berila boshlandi. Dastavval, bolalar bog‘chasi barpo etish uchun mos keladigan bino yoki er uchastkasini topish zarurligi va uni viloyat hokimligi tomonidan xususiy bolalar bog‘chalarni barpo etish uchun “nol” xarid qiymatida binolarni sotishni boshlab yuborildi.

Bo‘lg‘usi bolalar bog‘chasining loyihasi bo‘lishi ham zarur shartlardan biri Hisoblanib, Nomzod loyiha so‘mmasining 25%idan kam bo‘lmagan miqdorda sof aktivlarga ega bo‘lishi yoki xuddi shuncha so‘mmaga uchinchi shaxsning kafolatini taqdim etishi zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Bu bilan u o‘zining moliyaviy jihatdan layoqatli ekanini tasdiqlaganligi aniqlanadi.

Xozirda davlat-xususiy sheriklik asosida mamlakatimiz bo‘ylab 3 000 dan ortiq nodavlat MTM qurilishi va yuzlab bolalar bog‘chalari rekonstruksiya qilinishi ko‘zlangan. Ushbu loyihalar bo‘yicha xususiy sheriklarni izlash maqsadida Maktabgacha ta’lim vazirligi tanlov va tenderlar e’lon qiladi. Agar xususiy sherikning o‘z loyihasi bo‘lmasa, Vazirlikning e’lonlarini kuzatib borib, ular orasidan o‘ziga mos loyihani tanlab olishi mumkin bo‘ladi

Diplom loyiha ishini bajarishda “Uychi tunani Do‘stlik MFY xududida O.Abdullayevaga qarashli 100 o‘rinli xususiy maktabgacha ta’lim muassasasi binosini loyihalash” mavzusida diplom loyihagini bajarish vazifasi berildi. Unda qurilish me’morchiligi bo‘limida binoning hajmiy-rejaviy echimi, konstruktiv echimi, zilzilabardoshligini ta’minlashga qaratilgan echimlar qabul qilingan. Atrof muhit muhofazasi bo‘limida atrof muxitga tashlanayotgan chiqindilar turalari va ularning bartaraf etish yo‘llari tadbirlar, xayot faoliyati xavfsizligi bo‘yicha me’yorlar asosida qoida va tavsiyalar ishlab chiqilgan. SHu bilan birga Hisob konstruktiv, qurilishni tashqil qilish va rejalashtirish, qurilish iqtisodiyoti bo‘limlari topshiriq asosida ishlab chiqildi.

I. Qurilish me'morchiligi

I.1. Uychi tunani Do'stlik MFY xududida O.Abdullayevaga qarashli 100 o'rinli xususiy maktabgacha ta'lim muassasasi binosini loyihalash uchun umumiy ma'lumotlar.

Bino sinfi – II; bino uzoq yashovchanlik darajasi – II; Asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalar yong'inbardoshlik darajasi – II.; qor qoplamasi bo'yicha 1-geografik rayonga mansub bo'lib, me'yoriy qor qoplamasi – 0,5 kPa; shamol bosimi – 0,38 kPa; qurilish rayonining zilzilabardoshligi – 8 ball; binoning hisobiy zilzilabardoshligi – 8 ball; er osti suvlar –10 m dan pastda joylashgan; asos shag'alli tuproqdan iborat; asosga tushadigan hiobiy bosim–8 kgs/sm²; shamolning asosiy yo'nalishi – shimoldan; yer muzlash qatlaminig chuqurligi – 0,6 m;

Ushbu loyiha me'yorlari va qoidalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, bundan tashqari ularga mos holda bino ekspluatatsiyasi davomida portlash va yong'in xavfsizligini oldini oluvchi chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

I.2.Bosh reja

Loyihalanayotgan bino joylashish o'rni tumanning bosh rejasi, sxemasiga mos holda, mavjud bino va inshootlariga va asosiy yo'llarga bog'lanish, sanitari-gigienik va yong'inga qarshi talablarni hisobga olib loyihalangan. Bino aholi turar-joy xududida joylashgan.

Bino bosh rejasida atrof muhit muhofasini ta'minlash maqsadida hudud atrofida zangor devor hosil qilingan hamda gulzorlar ko'zda tutilgan.

Bosh reja asosiy ko'rsatkichlari

1.Uchastka maydoni	-	3200 kv.m
1.Qurilish maydoni	-	841,00 kv.m
3.Asfalt yo'l va maydonlar	-	1359 kv.m +320 kv.m
4.Ko'kalamzorlashtirilgan maydon-		680 kv.m
5.Asfaltlangan maydonlar %i	-	52.5 %
6.Qurilish foizi	-	26,3 %
7.Ko'kalamzorlashtirish foizi	-	21,2 %

1.3. Hajmiy-rejaviy echim

Loyihalanayotgan bino 2 qavatli. Loyihalanayotgan bino 3 ta blokdan iborat bo'lib, binoning rejadagi gabarit o'lchamlari 34,8 m x 24,8 m. binoning rejadagi ko'rinishi to'g'ri to'rtburchak shaklga ega.

Qavat balandligi 1- va 2 qavatlarda pol sathidan sift sathigacha 3.3 m, yertola qavatining balandligi 3.0 m ni tashqil qiladi.

Binoning hajmiy-rejaviy echimi maktabgacha ta'lim muassasalari uchun zarur bo'lgan xonalarni uzviylikini ta'minlash, texnologik bog'lanish uchun qulayliklar tug'dirish maqsadida tashqil qilingan.

1.4. Konstruktiv yechim

Binoni ko'tarib turuvchi konstruksiyalari, ya'ni poydevori, devorlari, alohida tayanchlari, qavatlararo yopmalari fazoda bir-biri bilan bog'lanib, bino negizini tashqil etadi.

Bino negizi ko'tarib turuvchi elementlarining fazoda qanday joylashtirilganligiga qarab, binolarni quyidagi konstruktiv tiplarga ajratish mumkin:

– karkassiz (sinchsiz) binolar o'zaro bog'langan tashqi devorlar va qavatlararo yopmalardan iborat bo'lgan bikr va mustahkam qutidan iborat. Binoning tashqi va ichki devorlari ora yopmalar hamda tom og'irligini qabul qiladi. Turar - joylar, maktablar va boshqa jamoat binolari qurilishida ana shu konstruktiv tip keng tarqalgan;

– karkasli (sinchli) binolarda ustunlar sistemasi gorizontal to'sinlar bilan birgalikda bino asosini tashqil qiladi. Binoning karkasi binoga ta'sir qiladigan barcha kuch va og'irliklarni qabul qiladi. Karkasli bino konstruksiyalari vazifasiga ko'ra bir-biridan farq qilib, ko'tarib turuvchi va himoyalovchi guruhlariga bo'linadi. Bu holda tashqi devorlar faqat himoyalovchi funksiyasini bajarib, ular o'z-o'zini ko'taruvchi yoki ilib qo'yilgan bo'lishi mumkin:

– agar ichki bo'ylama yoki ko'ndalang devorlar o'rniga ustunlar sistemasi o'rnatilib, ularga tayangan gorizontal to'sinlarga qavatlararo yopmalar

joylashtirilgan bo'lsa, bunday binolar yarim karkasli bino deb ataladi.


Loyiha industrial qurilish mahsulotlari katalogi asosida ishlab chiqilgan. Tashqi va ichki yuk ko'taruvchi devorlar g'ishtdan.

Poydevorlar

Poydevor binoning asosiy konstruktiv elementlaridan biri hisoblanib, u binoning yer ustki qismidan tushayotgan og'irlikni zaminga uzatib turadi. Binolar yerto'lali bo'lsa, poydevorlar yerto'la xonalarini o'rab turuvchi konstruktsiya vazifasini ham o'taydi.

Poydevorlar har xil tashqi kuch va muhit ostida bo'ladi. Bu ta'sirlardan asosiylari: butun binoning og'irligi, grunt ko'tarilishi va muzlashidan hosil bo'ladigan ta'sir kuchlari, seysmik ta'sirlar, tovush ta'siridan binoning titrashi, o'zgaruvchan harorat, namlik, kimyoviy moddalar ta'siri, bakteriyalar, zamburg'lar, hasharotlar ta'siri va h.k.

Bunday ta'sirlarga bardosh berishi uchun poydevorlar mustahkam, turg'un, uzoq vaqtga chidamli, yer osti suvlari, kimyoviy va biologik moddalar ta'sir etmaydigan bo'lishi lozim. Poydevorlarni qurishda yog'och, xarsangtosh, xarsangtoshbeton, beton va temirbeton kabi materiallardan foydalaniladi.



Loyihada lentasimon poydevor qo'llanilgan G'isht devorlar ostiga poydevorlar lenta shaklida qo'yiladi. Poydevorlarni qo'yilish chuqurligi – 3,63 m ni tashqil qiladi.

Poydevor yostiqchasining ostiga gorizontal gidroizolatsiya qalinligi 50 mm li asfaltobetondan bajariladi. Poydevorning yer bilan tutashadigan qismini 2 qatlamli issiq bitum surtish bilan gidroizolatsiya qilinadi.

Devor


Devor binoning asosiy konstruktiv elementlaridan biri bo'lib, u tashqi muhit ta'siridan himoyalashdan tashqari ko'p hollarda o'ziga qo'yilgan qavatlararo yopma va tom og'irligini ko'tarish vazifasini ham bajaradi. Binoning bu elementi turli-tuman tashqi kuchlar va tashqi muhit ta'siri ostida bo'ladi. Devorlar o'z xususiy og'irligini, tom va qavatlararo yopmalardan tushadigan doimiy va vaqtinchalik yuklarni, shamol kuchi ta'sirini, zaminning notekis cho'kishidan hosil bo'lgan deformatsiyalarni, zilzila kuchlari va boshqalarni qabul qiladi. Devorlar tashqi tomondan quyosh radiatsiyasi, yog'in-sochin, o'zgaruvchan harorat va havo namligi, shovqinlar, ichki tomondan esa issiqlik oqimi, suv bug'i, shovqin kabi ta'sirlar ostida bo'ladi. Shuning uchun ham bino loyihasini yaratishda devorlarning joyi, ularning konstruktiv sxemasi va turini tanlashga katta e'tibor beriladi. Bino devorlari vazifasiga ko'ra quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak, mustahkam, turg'un, fazoviy biki bo'lishi, bino sinfiga to'g'ri keluvchi olovbardoshlik darajasiga mos, xona ichida ma'lum harorat va namlik rejimini ta'minlash, tovushdan yetarli darajada izolatsiya qilishi, o'rnatilishida texnologik va industrialikka ega, tejamli va arzon bo'lishi, uni qurishga mehnat kam sarflanadigan bo'lishi, arxitektura talablariga javob berishi lozim.

Tashqi devorlarda odatda bino ichini tabiiy yoriqlik bilan ta'minlash uchun deraza o'rni, xonaga kirish va balkon hamda ayvonlarga chiqish uchun eshik o'rni qoldiriladi. Deraza va eshik o'rnatilgan devorlar ham o'z navbatida yuqoridagi talablarga javob berishi kerak.

Loyihalananayotgan binoning asosiy yuk ko'taruvchi konstruksiyalari ichki va tashqi g'isht devorlar bo'lib xizmat qiladi.

Tashqi va ichki devorlar hajmiy og'irligi 1800 kg/m^3 , markasi «M75» bo'lgan oddiy pishirilgan g'ishtdan, qalinligi 510 mm, ya'ni 2,5 g'isht qalinlikda teriladi. (teplotexnik hisobga asosan)

G'isht devorli binolarning zilzilaga chidamliligini oshirish uchun bir necha xil tadbirlar qo'llaniladi. Bunda binoning turg'unligi va fazoviy birligi qavatlararo yopma va tom yopmasi tekisligida devorlar ustidan bo'ylama va ko'ndalang o'rnatilgan zilzilaga qarshi quyma yoki yig'ma temirbeton armatura uzluksiz bo'lishi kerak. Bu belbog'lar armaturalari o'z navbatida devorlar orasidan chiqarilgan temirbeton ustunchalarning po'lat armaturalari yordamida o'zaro bog'lanib, fazoviy karkas hosil qiladi.



Bino devori konturi bo'yicha ilingan quyma temirbeton ora yopma o'rnatilgan bo'lsa, uning tekisligida zilzilaga qarshi belbog'lar qo'yilmasa ham bo'ladi.

Zilzilaga qarshi belbog' devorning butun eni barobarida o'rnatilib, balandligi kamida 150 mm bo'lishi kerak. Devor qalinligi 500 mm va undan katta bo'lsa, belbog' enini devor enidan 100–150 mm

kichik olish mumkin.

O'z navbatida, har bir qavat uchun g'isht bino devorlarining balandligi, zilzila kuchi 7, 8 va 9 balli mintaqalarda tegishli 5, 4 va 3, 5 m dan oshmasligi kerak. Agar devorlar armaturalar yordamida yoki ularga temirbeton kiritilib kuchlantirilsa, qavat balandligini yuqorida keltirilgan zilzila kuchiga muvofiq 6,5 va 4,5 m ga yetkazish mumkin.


Qurilish rayoni 8 ballik seysmik hududga mansub bo'lganligi uchun g'isht terish jarayonida antiseysmik tadbirlar «Zilzilaviy hududlarda qurilish» QMQ asosida ta'minlanadi.

Orayopma va tomyopma plitalari

Qavatlararo yopmalar ham binoning asosiy konstruktiv elementlaridan biri bo'lib, uning ichki bo'shlig'ini balandligi bo'yicha qavatlaraga ajratib turadi. Binoda joylashgan o'rniga ko'ra, qavatlararo yopmalar yerto'la usti ora yopmasi, chordoq ora yopmasi va qavatlararo ora yopmasiga bo'linadi.

Qavatlararo ora yopmalar va pollar narxi bino umumiy narxining 18–20% ini, ularni o'rnatishga sarflanadigan mehnat esa 20–25% ni tashqil qiladi. Qavatlararo ora yopmalariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri uning mustahkam bo'lishi,

ya'ni unga ta'sir etayotgan vaqtinchalik yoki doimiy kuchlarga chidamliligi va tashqi kuch ta'siridan qattiq deformatsiyalanmasligidir. Bunday talablar bikrlilik orqali belgilanadi.



Qavatlararo ora yopma bikrligi yetarlicha bo'lmasa, u tashqi kuch ta'siridan egilishi va unda yoriqlar hosil bo'lishi mumkin. Bikrlilik kattaligi nisbiy egilish qiymati bilan baholanib, ora yopma absolyut egilishining bo'ylama oraliq o'lchamiga nisbatidan olinadi. Uni qiymati tom yopmasi uchun 1200 dan, qavatlararo ora yopma uchun 1250 dan oshmasligi kerak.


Loyihalananayotgan binoda orayopma va tom yopma plitasi uchun 1.461-1 seriyali ko'p bo'shliqli plitalar qo'llanilgan.

Ko'p bo'shliqli panellar devorga M50 sement qorishma ustiga o'natiladi. Panellar orasidagi choklar M100 markali sementli qorishma bilan bir tekisda to'ldiriladi.

Ko'p bo'shliqli plitalar o'zaro ankerlar bilan payvand qilinadi. Plita bo'shliqlariga 25 sm chuqurlikda beton quyiladi. Santexnika trubalari o'tkazish uchun elektr instrument yordamida kerakli diametrdagi teshikni bo'shliq bor

joydan ochishga ruxsat beriladi. Panel qoburg'alarini sindirish yoki u erdan teshik ochish ta'qiqlanadi.

Zinapoya



Zinalar (qavatlararo) bino qavatlarini o'zaro bog'laydi va odamlarni binodan evakuatsiya qilish yo'li vazifasini ham o'taydi. Zinalar joylashgan maydonga zinaxona deb ataladi. Zinalar ikki konstruktiv element–zinaning ikki sathni va ular orasidagi qiya joylashgan marsh- dan iborat bo'ladi. Zina marshida harakat xavfsizligini ta'minlash uchun marsh chekkasiga zina panjarasi o'rnatiladi.


Loyihalanayotgan bino uchun yig'ma temir beton zina maydoni va qadamidan foydalanilgan.

Tom

Tomlar bino va uning konstruksiyalarini atmosfera yog'in-sochin ta'siridan saqlovchi konstruktiv elementdir. Ular tom yopish uchun ishlatilgan material va uni ko'tarib turuvchi konstruksiyalardan iborat bo'ladi. Tomlar konstruktiv tuzilish jihatidan chordoqli va chordoqsiz tomlarga bo'linadi.

Chordoq binoning tepa qavati bilan tom yopmasi orasida joylashgan bo'liq qismidan iborat. Chordoqsiz tomda binoning tepa qavati yopmasi bilan tomi birlashgan bo'ladi. Tomlar nishabli va tekis bo'lishi mumkin. Tekis tomlardan dam olish maydoni sifatida va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

Loyihalanayotgan binoning tom konstruksiyasi chordoqli bo'lib, chordoq qismida bo'g'saqلاغich qatlam ustiga issiqsaqlagich sifatida hajmiy og'irligi 400 kg/m³ li mineral vata ko'zda tutilgan. Issiqsaqlagich ustidan qalinligi 30 mm li shlak-ohak aralashmali qorishma yotqizildi.



Tom to'shmasi sifatida SV-1750 (DAST 20430-75) markadagi to'liqsimon asbest shifer qo'llanilgan. Stropila yog'ochi ustidan 50x50 qadamda reykanan obreshetka to'qilib, ustiga shifer qoplanadi. Tomdan yog'in suvlari tashqil qilgan holda otsinkali trubalar orqali chiqib ketadi.

Tom konstruksiyasi tarkibida tomning shamollatish tuynugi (sluxovoe

okno) ko'zda tutilgan.

Tom nishoblighi katta bo'lganligi uchun tom cheti bo'ylab to'siq loyihada ko'zda tutilgan.

Pardevorlar

Xonalarni bir-biridan ajratuvchi, yuk ko'tarmaydigan, vertikal ichki devorlar pardadevorlar deb ataladi.

Parda devorlar qavatlararo ora yopmalarni ko'taruvchi konstruksiyalar (xarilar, plitalar) tayangan bo'ladi. Yerto'lasiz binolarning birinchi qavatidagi hamda yerto'la qavatidagi parda devorlar beton yoki g'isht ustunga o'rnatiladi. Parda devorlarni to'g'ridan-to'g'ri pol ustiga o'rnatib bo'lmaydi. Parda devorlar quyidagi talablarga javob berishi kerak: mustahkam, yengil, tovush, bug' va gaz o'tkazmasligi, suv ta'siriga chidamli bo'lishi, yonmasligi, yuzasi bo'yalishiga yoki gulgug'oz yopishtirilishiga tayyorlangan bo'lishi, sirtida g'adir- budirlar, kovakchalar bo'lmasligi kerak.

G'isht parda devorlar qalinligi $\frac{1}{2}$ yoki $\frac{1}{4}$ g'isht qalinligida bo'ladi. Qalinligi $\frac{1}{2}$ g'isht devorlar balandligi 3m gacha, uzunligi esa 5 m dan oshmasligi kerak. Agar xona balandligi va uzunligi ko'rsatilgan o'lchamlardan katta bo'lsa, u holda har olti qatordan so'ng gorizontall choklar bo'yicha joylashgan, qalinligi 1,5 mm va eni 25 mm bo'lgan uzun po'lat listlar bilan armaturalanadi.

Parda devorlarni oʻrnatishda ularning tovush oʻtkazmaslik xususiyatlarini yaxshilash uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim. Birinchidan, parda devorlar toʻgʻridan-toʻgʻri toza pol sathiga hamda pol lagasi ustiga oʻrnatilmasligi kerak. Ular toʻsinlar ustiga yoki temirbeton ora yopma plitalari ustiga oʻrnatiladi. Bunda devor ostiga qorishma toʻshaladi. Polning parda devorga tutashgan joylariga ham tovush oʻtkazishini kamaytirish uchun yumshoq toʻshama qatlami toʻshaladi







Loyihada pardevorlar armogʻishtdan iborat. Armogʻisht pardevorlar oddiy pishirilgan gʻishtdan M25 markali qorishmada teriladi. Xar bir 5 qatordan 4 mm li VR-1 klaasli armatura setkasi qoʻyiladi. Pardevorlar xar ikkala tomonidan ohak-sementli M50 markali qorishma bilan suvoq qilinadi.

Pollar

Pollar temirbeton ora yopma paneli ustidan yoki yertoʻlasiz binolar birinchi qavatida toʻgʻridan-toʻgʻri grunt ustiga oʻrnatiladi.

Polning eng yuqori qatlami «qoplama» yoki «haqiqiy pol» deb ataladi. Pol materiali oldindan tayyorlangan yuza sathiga oʻrnatiladi. Bunda tagiga solingan tekislovchi qatlam betondan, sement-qum qorishmasidan, asfaltdan yoki gipodan iborat boʻlishi mumkin. Qavatlararo ora yopmada pol zamini boʻlib, ora yopma koʻtaruvchi konstruksiya hisoblanadi. Bunda tagiga solinadigan beton qatlam boʻlmaydi. Pol konstruksiyasiga tovush oʻtkazmaydigan, issiqlik va suv oʻtkazmaydigan qatlamlar qoʻshimcha boʻlim kirishi mumkin.

Binoning vazifasiga va ishlab chiqarish jarayonlari xarakteriga koʻra pollar pishiq boʻlishi, issiqlikni kam oʻtkazuvchi, sirpanmaydigan, hoʻllanganda shishmaydigan, koʻrinishi chiroyli, chang olmaydigan, yurganda tovush chiqarmaydigan, oson tozalanuvchan, industrial va arzon boʻlishi kerak. Namlik yuqori darajada boʻladigan xona pollari namlik taʻsiriga chidamli va suv oʻtkazmaydigan, yongʻindan xavfli binolarda esa yonmaydigan boʻlishi kerak.

		
Linoleumli pol	Keramik plitkali pol	Mozaykali pol
		
Taxta (DSP) pol	Laminat pol	Metlax plitkali pol

Eshik va derazalar

Derazalar xonalarga yorug'lik, quyosh nuri tushishi hamda xonalarni shamollatish uchun xizmat qiladi. Ular deraza o'rni, deraza kesakisi va deraza tavaqalaridan iborat bo'ladi.

Eshiklar xonalarni bir-biri bilan bog'laydi, shuningdek, binoga kirish va undan chiqish yo'li hisoblanadi. Ular devordagi yoki parda devordagi eshik o'rni, eshik qutisi (kesakisi) va tavaqasidan iborat bo'ladi. Turar-joy binolarida bulardan tashqari boshqa konstruktiv elementlar, ya'ni dahliz, ayvon, eshik usti soyaboni va boshqalar ham bo'lishi mumkin.


Loyihada vitraj, eshik va derazalar AKFA dan qabul qilingan.

Eshik va derazalarni o'lchamlari, qo'llanishi va soni to'g'risida ma'lumotlar loyihaning arxitektura qismining «materiallar qaydnomasida» keltirilgan.

Ichki va tashqi pardoqlar

G'ishtli devor va pardevorlar suvoq qilinib, so'ngra bo'yoq qilinadi.

Bino atrofi 1000 mm li asfaltbetonli otmoska yotqiziladi.




Antiseysmik chora-tadbirlar

Loyihalaniyotgan binoni seysmik mustaxkamligini oshirishga qaratilgan quyidagi asosiy konstruktiv choralar ishlab chiqilgan.

Bino perimetri bo'ylab joylashgan xonalarning orayopma va tomyopma panellarning o'zaro siljishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shponka hosil qilinadi; buning uchun panellarning yon qismida qoldirilgan o'yiqlik joy (paz) larga sement qorishma quyiladi. Panellar orasidagi choklarda hosil bo'ladigan qirquvchi kuchlarni ana shu shponkalar o'ziga qabul qiladi.

Bundan tashqari, bo'yлама kuchlarni qabul qilish uchun panel tekisligida yaxlitlikni ta'minlovchi temir-beton bog'lama (obvyazka) ishlanadi. YOpm panellari bog'lama bilan armatura ilmoqlari yordamida biriktiriladi. Temir-beton bog'lamlar bor erda panellar orasiga bog'lagich qo'ymasa ham bo'ladi.


G'isht devorli binolarda bo'yлама va ko'ndalang devorlarning tutashuv erlari nozik joy hisoblanadi. Ikki yo'nalishdagi devorlarni bir-biridan ajratishga intiluvchi zo'riqishlar shu erlarga to'planadi. Ikki yo'nalishdagi devorlarning bog'lanishini kuchaytirish maqsadida tutashuv erlaridagi gorizontall choklarga sim



to'r yotqiziladi. Sim to'rlarning uzunligi 1,5 - 2,0m bo'lib, qurilish maydonchasi 8 balli seysmik xudud bo'lgani uchun devor balandligi bo'ylab har 50 sm da joylashtiriladi.

Devorlarning o'zaro birikuvini mustahkamlash maqsadida sim to'rlardan tashqari temir-beton antiseysmik kamarlardan

foydalaniladi. Binoda antiseysmik kamarlar barcha bo‘ylama va ko‘ndalang (ichki va tashqi) devorlar bo‘ylab o‘tkazilib, har bir qavatning shipi balandligida yotqiziladi; devor va yopmalar bilan chambarchas bog‘lanib, yagona yopiq sistema tashqil etadi. Antiseysmik kamarlar devorlarning o‘zaro bog‘lanishini mustahkamlaydi; devorlarning o‘z tekisligidagi pishiqligini oshiradi; yopmalarning bikrligi va monolitligining ortishini ta‘minlaydi.



Bo‘ylama va ko‘ndalang devorlarni tutashuv yerlari:

a) burchaklar, b) kesishuv yerlari

Kamarlarga uzunasiga butun perimetr bo‘ylab armatura yotqiziladi va har 25-40 sm da diametri 4-6 mm bo‘lgan po‘lat xomut bog‘lanadi. Armatura sifatida A-I sinfli po‘lat ishlatilib, ularning diametri 10 mm dan kam bo‘lmasligi lozim. Yotqiziladigan betonning sinfi V12,5 dan kam bo‘lmasligi kerak. Burchaklarda va kesishuv erlarida qo‘yilgan sim to‘r mustahkamlikni ta‘minlay olmasa, qiya sterjenlar qo‘yish tavsiya etiladi.

Kamarlarning kengligi devorlarning eni bilan baravar olinadi. Kamarning balandligi 15 sm dan past bo‘lmasligi kerak. Binolarning eng yuqori qavatining tomi sathida o‘rnatiladigan kamarlarning ustida bosib turadigan yuk bo‘lmaganligi sababli er qimirlaganda kamar o‘rnidan siljishi mumkin. Buning oldini olish uchun devorning uzunasiga har 50 sm da kamardan yuqori va pastga 25-30 sm uzunlikda armatura chiqarib qoldiriladi. Armaturaning o‘rniga shponkadan foydalansa ham bo‘ladi. Buning uchun kamar ostidagi devorda 14x14x30 sm o‘lchamda chuqurcha qoldiriladi, chuqurchaga vertikal armatura joylanadi. Kamarga beton yotqizilganda, chuqurchaga ham beton to‘ldiriladi.

II. Hisob konstruktiv qism

Uychi tunani Do'stlik MFY xududida O.Abdullayevaga qarashli 100 o'rinli xususiy maktabgacha ta'lim muassasasi uchun mo'ljallangan ko'p bo'shliqli plitani hisoblash

Loyihalash uchun umumiy ma'lumotlar

Rejadagi o'lchamlari 14.8x24.8 m m bo'lgan g'ishtli binoning qavatlar balandligi – 3,0 m. Vaqtinchalik yuklamaning me'yoriy qiymati $v=6000 \text{ N/m}^2$, shundan -1800 N/m^2 (ya'ni 30%) qisqa muddatli yuklama. Binoning turi bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti $\gamma_n=0,95$. Qor yuklamasi bo'yicha I rayonga mansub.

Orayopmaning 1m^2 yuzasiga to'g'ri kelgan yuklamalar 2-jadvalda keltirilgan. Plitaning eni 1,2 m, binoning turi bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti $\gamma_n=0,95$ bo'lganda plitaning 1 m uzunligiga to'g'ri kelgan hisobiy yuklamalar:

doimiy: $g=5,084 \cdot 1,2 \cdot 0,95=5,796 \text{ kN/m};$

to'la: $(g+v)=10,884 \cdot 1,2 \cdot 0,95=14,004 \text{ kN/m};$

vaqtinchalik $v=7,2 \cdot 1,2 \cdot 0,95=8,208 \text{ kN/m};$

plitaning 1 m uzunligiga to'g'ri kelgan me'yoriy yuklamalar:

doimiy: $g_n=4,5 \cdot 1,2 \cdot 0,95=5,13 \text{ kN/m};$

to'la: $(g_n+v_n)= 10,5 \cdot 1,2 \cdot 0,95=11,970 \text{ kN/m};$

shu jumladan doimiy va uzoq muddatli yuklamalar:

$8,7 \cdot 1,2 \cdot 0,95=9,980 \text{ kN/m};$

1 m² orayopma uchun me'yoriy va hisobiy yuklamalar

Yuklama	Me'yoriy yuklama, N/m ²	Yuklamaning turi bo'yicha ishonchlilik koeffitsienti	Hisobiy yuklama, N/m ²
Doimiy:			
Ko'p bo'shliqli plitaning hususiy og'irligi	3000	1,1	3300
DSpli poldan t=0,02 mm ($\rho=800 \text{ kg/m}^3$)	160	1,1	176
Shlakli beton qatlamidan t=0,065 mm ($\rho=1600 \text{ kg/m}^3$)	1040	1,2	1248

Ko'pik betonli tovushdan muhofazalovchi plita t=0,06 mm ($\rho=500 \text{ kg/m}^3$)	300	1,2	360
Jami:	4500		5084
Vaqtinchalik yuklama	6000	1,2	7200
Shu jumladan:			
uzoq muddatli	4200	1,2	5040
qisqa muddatli	1800	1,2	2160
To'la yuklama:	10500	–	12284
Shu jumladan:			
doimiy va uzoq muddatli	8700	–	
qisqa muddatli	1800	–	

Hisobiy va me'yoriy yuklamalardan hosil bo'lgan zo'riqishlar:

Hisobiy to'la yuklamadan:

$$M = \frac{(g + v) \cdot l_0^2}{8} = \frac{14,004 \cdot 6,3^2}{8} = 69,48 \text{ } \kappa H \cdot m ;$$

$$Q = \frac{(g + v) \cdot l_0}{2} = \frac{14,004 \cdot 6,3}{2} = 44,11 \text{ } \kappa H ;$$

Me'yoriy to'la yuklamadan:

$$M = \frac{11,97 \cdot 6,3^2}{8} = 59,39 \text{ } \kappa H \cdot m ; \quad Q = \frac{11,97 \cdot 6,3}{2} = 37,71 \text{ } \kappa H ;$$

Me'yoriy va uzoq muddatli yuklamalardan:

$$M = \frac{9,918 \cdot 6,3^2}{8} = 49,21 \text{ } \kappa H \cdot m ;$$

Plita kesimining o'lchamlarini belgilash

Ko'p bo'shliqli oldindan zo'riqtirilgan plita kesimining balandligi:

$$h = \left(\frac{1}{20} \div \frac{1}{30} \right) \cdot l_0 = \frac{630}{27} = 22 \text{ } cm, \quad h=22 \text{ } sm \text{ qabul qilamiz.}$$

Bo'shliqlar soni – 6 ta, bo'shliqlar diametri – 16 sm

Kesimning ishchi balandligi $h_0=h-a=22-3=19 \text{ } sm$

O'lchamlari: quyi va yuqori tokchalarning qalinligi $(22-16) \cdot 0,5=3 \text{ } sm$

Qobirg'aning eni: o'rtada – 2,5 sm, chetki qismda – 5,25 sm.

Birinchi guruh chegaraviy holatlar bo'yicha hisobda tavr kesim siqilgan tokchasining hisobiy qalinligi $h'_f=3 \text{ sm}$, nisbat: $h_f/h=3/22=0,14>0,1$ u holda, hisoblashda tokchanning to'la uzunligi $b'_f=116 \text{ sm}$ hisobga kiritiladi. Qoburg'aning hisobiy eni $b=116-6\cdot 16=20 \text{ sm}$.

Beton va armaturalar mustahkamligining tavsiflari

Oldindan zo'riqtirilgan ko'p bo'shliqli plitaga **K-7** sinfli armaturalar qo'llaymiz. Armaturani tortish uslubi – qolip-elektrotermik. Konstruksiyaga atmosfera bosimi ostida issiqlik bilan ishlov beriladi.

V25 sinfli og'ir beton. Uning prizmatik mustahkamligi: me'yoriy qarshiligi $R_{bn}=R_{b,ser}=18,5 \text{ MPa}$; hisobiy qarshiligi $R_b=14,5 \text{ MPa}$; betonning ish sharoiti koeffitsienti $\gamma_{b2}=0,9$; cho'zilishga bo'lgan qarshiliklari: me'yoriy: $R_{btm}=R_{bt,ser}=1,6 \text{ MPa}$; hisobiy: $R_{bt}=1,05 \text{ MPa}$; betonning boshlang'ich elastiklik moduli $E_b=27000 \text{ MPa}$;

Betonning uzatish mustahkamligi R_{bp} shunday belgilanadiki, bunda siqilishdagi kuchlanishlar nisbati $\sigma_{bp}/R_{bp}\leq 0,75$ shart bajarilsin.

K-7 sinfli bo'ylama armatura uchun: me'yoriy qarshilik: $R_{sn}=1335 \text{ MPa}$; hisobiy qarshilik: $R_s=1100 \text{ MPa}$; elastiklik moduli: $E_s=180000 \text{ MPa}$;

Armaturadagi oldindan zo'riqish $\sigma_{sp}=0,85\cdot 1335=1134,8 \text{ MPa}$

$$\Delta\sigma_{sp}=30+360/L=30+360/6,3=87,1 \text{ MPa};$$

$$\sigma_{sp}+\Delta\sigma_{sp}=1134,8+87,1=1221,9 \text{ MPa} < R_{sn}=1335 \text{ MPa} \text{ shart bajarildi.}$$

Zo'riqtirilgan armaturalar soni $n_r=4$ ta bo'lganda oldindan zo'riqishning chegaraviy og'ishini hisoblaymiz.

$$\lambda_{sp} = 0,5 \cdot \frac{\Delta\sigma_{sp}}{\sigma_{sp}} \cdot \left(1 + \frac{1}{\sqrt{n_p}}\right) = 0,5 \cdot \frac{87,1}{1135} \cdot \left(1 + \frac{1}{4}\right) = 0,058$$

Tortishning aniqlik koeffitsienti $\gamma_{sp}=1-\Delta\lambda_{sp}=1-0,1=0,9$

Plitaning yuqori zonasida darzlar hosil bo'lishini hisoblaganda $\gamma_{sp}=1+0,1=1,1$. Tortish aniqligini hisobga olgan holdagi dastlabki zo'riqish $\sigma_{sp}=0,9\cdot 1134,8=1021,3 \text{ MPa}$.

Plitani bo‘ylama o‘qqa normal kesimlar bo‘yicha mustahkamlikka hisobi

$M=69,48 \text{ kN}\cdot\text{m}$. Siqiluvchi tokchali tavr kesim hisoblanadi

$$A_0 = \alpha_m = \frac{M}{R_b \cdot b_f^I \cdot h_o^2} = \frac{6948000}{0,9 \cdot 14,5 \cdot 116 \cdot 19^2 \cdot (100)} = 0,114$$

2-ilovadan $\xi=0,121$; $\eta=0,940$; $x=\xi h_o=0,121 \cdot 19=2,3 \text{ sm} < 5 \text{ sm}$ demak, neytral o‘q tokchadan o‘tadi.

Siqiluvchi zonaning xarakteristikasini hisoblaymiz:

$$\omega=0,85-0,008 \gamma_{b2} \cdot R_b=0,85-0,008 \cdot 0,9 \cdot 14,5=0,75$$

Siqiluvchi zona xarakteristikasini hisoblaymiz:

$$\xi_R = \frac{\omega}{\left[1 + \frac{\sigma_{SR}}{500} \cdot \left(1 - \frac{\omega}{1,1}\right)\right]} = \frac{0,75}{\left[1 + \frac{705,6}{500} \cdot \left(1 - \frac{0,75}{1,1}\right)\right]} = 0,52$$

bu yerda: $\sigma_{SR}=R_S+400-\sigma_{sp}=1100+400-794,4=705,6 \text{ MPa}$

$\gamma_{b2} < 1$ bo‘lgani uchun, maxrajda 500 qabul qilingan.

Armaturani shartli oqish chegarasidan yuqori qiymatiga qarshiligini hisobga oluvchi koeffitsient quyidagicha aniqlanadi.

$$\gamma_{s6} = \eta - (\eta - 1) \left(\frac{2\xi}{\xi_R} - 1 \right) = 1,15 - (1,15 - 1) \left(\frac{2 \cdot 0,088}{0,52} - 1 \right) = 1,23 > \eta$$

bu yerda: $\eta=1,15$, A-V sinfli armaturalar uchun $\gamma_{s6}=1,15$ qabul qilamiz.

Cho‘ziluvchi armaturaning kesim yuzasini aniqlaymiz:

$$A_S = \frac{M}{\gamma_{s6} \cdot R_S \cdot \eta \cdot h_o} = \frac{6948000}{1,15 \cdot 1100 \cdot 0,940 \cdot 19 \cdot (100)} = 3,08 \text{ cm}^2;$$

4-ilovadan 4Ø12 K-V sinfli armaturani qabul qilamiz. Uning yuzasi $A_S=3,62 \text{ sm}^2$

Plitani bo‘ylama o‘qqa qiya kesimlar bo‘yicha mustahkamlikka hisobi

Hisobiy zo‘riqish: $Q=44,11 \text{ kN}$; Siqilishdagi zo‘riqishning ta’siri $R_{02}=346,81 \text{ kN}$ (ushbu qiymat oldindan zo‘riqishlarning yo‘qolishini hisoblaganda aniqlanadi).

$$\varphi_n = \frac{0,1 \cdot N}{R_{bt} \cdot b \cdot h_o} = \frac{0,1 \cdot 346817}{1,05 \cdot 14 \cdot 19 \cdot (100)} = 1,242 < 0,5$$

$\varphi_n=0,893$ qabul qilamiz.

Hisob bo'yicha ko'ndalang armaturalar talab qilinishini tekshiramiz:

$$Q_{max}=44,11 \cdot 10^3 \leq 2,5 R_{bt} \cdot b \cdot h_0 = 2,5 \cdot 0,9 \cdot 1,05 \cdot 20 \cdot 19 \cdot (100) = 89,775 \cdot 10^3 N$$

shart bajarildi. $q_1 = g + v/2 = 5,796 + 8,208/2 = 9,9 \text{ kN/m} = 99,00 \text{ N/sm}$ va

$$0,16 \varphi_{b4} (1 + \varphi_n) \cdot R_{bt} \cdot b = 0,16 \cdot 1,5 \cdot (1 + 0,5) \cdot 0,9 \cdot 1,05 \cdot 20 \cdot (100) = 680,4 \text{ N/sm} > 90,79 \text{ N/sm}$$

bo'lgani uchun $c = 2,5 h_0 = 2,5 \cdot 19 = 47,5 \text{ sm}$

Keyingi shart: $Q = Q_{max} - q_1 \cdot c = 44,11 \cdot 10^3 - 99,00 \cdot 47,5 = 39,4 \cdot 10^3 \text{ N}$

$$\varphi_{b4} (1 + \varphi_n) \cdot R_{bt} \cdot b \cdot h_0^2 / s = 1,5 \cdot (1 + 0,5) \cdot 0,9 \cdot 1,05 \cdot 20 \cdot 19^2 \cdot (100) / 47,5 = 32,3 \cdot 10^3 \text{ N} > 39,4 \cdot 10^3 \text{ N}$$

Ikkinchi shart ham bajarildi. Demak ko'ndalang armatura hisob bo'yicha talab qilinmaydi.

Uzunligi $l/4$ bo'lgan tayanch oldi qismida konstruktiv shart asosida $\emptyset 4 \text{ Br-I}$ sinfli armaturani $S = h/2 = 22/2 = 11 \text{ sm}$. Plitaning tayanch oldi qismlarida $S = 10 \text{ sm}$ qabul qilamiz. Plitaning o'rta qismlarida armatura o'rnatilmaydi.

6. Ko'p bo'shliqli plitani ikkinchi guruh chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblash

Keltirilgan yuzaning geometrik xarakteristikalarini. Doira ko'rinishidagi bo'shliqlarning tomonlari $h = 0,9 \cdot 16 = 14,4 \text{ sm}$ bo'lgan ekvivalent kvadrat kesimga almashtiramiz. Shunda ekvivalent kesim tokchasining qalinligi $h'_f = h_f = (22 - 14,4)/2 = 3,8 \text{ sm}$; qoburg'alarning eni $116 - 6 \cdot 14,4 = 29,6 \text{ sm}$, bo'shliqlarning eni $116 - 29,6 = 86,4 \text{ sm}$.

Keltirilgan kesim yuzasi:

$$A_{red} = A_b + \alpha \cdot A_s = 116 \cdot 22 - 86,4 \cdot 14,4 = 1308 \text{ sm}^2$$

($\alpha \cdot A_s$ qiymati juda kichik bo'lganligi uchun uni hisobga olinmadi)

Kesimning quyi chetidan keltirilgan kesim og'irlik markazigacha bo'lgan masofa:

$$y_0 = 0,5h = 0,5 \cdot 22 = 11 \text{ sm}$$

Keltirilgan (simmetrik) kesimning inersiya momenti:

$$I_{red} = \frac{116 \cdot 22^3}{12} - \frac{86,4 \cdot 14,4^3}{12} = 81432 \text{ sm}^4$$

Keltirilgan kesimning quyi zonasi bo'yicha qarshilik momenti:

$$W_{red} = \frac{I_{red}}{y_o} = \frac{81432}{11} = 7403 \text{ cm}^3$$

xuddi shu kabi yuqori zonasi bo'yicha ham $W'_{red} = 7403 \text{ sm}^3$

Cho'ziluvchi zonadan eng ko'p uzoqlashgan yadroviy nuqtadan (yuqoriga) keltirilgan kesim og'irlik markazigacha bo'lgan masofa:

$$r = \varphi \frac{W_{red}}{A_{red}} = 0,85 \cdot \frac{7403}{1308} = 4,81 \text{ cm}$$

xuddi shu kabi, eng kam uzoqlashgan masofa (pastki) $r_{inf} = 4,81 \text{ sm}$

bu yerda: $\varphi = 1,6 - \sigma_b / R_{b,ser} = 1,6 - 0,75 = 0,85$

Betondagi me'yoriy yuklamalardan hosil bo'lgan kuchlanishlarni beton hisobiy qarshiligiga nisbati ikkinchi guruh chegaraviy holatlar uchun taxminan 0,75 ga teng deb olamiz.

Cho'ziluvchi zona bo'yicha elastik-plastik qarshilik momenti:

$$W_{pl} = \gamma \cdot W_{red} = 1,5 \cdot 7403 = 11105 \text{ sm}^3$$

bu yerda: $b_f/b = 2 < 116/29,6 = 3,92 < 6$ bo'lgandagi qo'shtavrlı kesim uchun $\gamma = 1,5$ qabul qilingan.

Elementni tayyorlash va tortilgan armatura siqilish bosqichidagi cho'ziluvchi zona bo'yicha elastik-plastik qarshilik momenti $W'_{pl} = 11105 \text{ sm}^3$

Armaturada dastlabki kuchlanishlarning yo'qolishi

Armaturani tortish aniqligi koeffitsienti $\gamma_{sp} = 1$

Birinchi yo'qotishlar:

1. Armaturada kuchlanishni deformatsiya o'zgarmagan holdagi kamayishi (1-yo'qotishlar) - kuchlanishlar relaksatsiyasi:

Elektrotermik va elektrotermomexanik usulda taranglanganda:

Sterjenli armatura uchun:

$$\sigma_I = (0,22 \times \sigma_{sp} / R_{sn} - 1) \times \sigma_{sp} = (0,22 \cdot 1134,8 / 1335 - 0,1) \cdot 1134,8 = 98,7 \text{ MPa}$$

2. Taranglangan armatura bilan tortqich orasidagi temperaturalar farqi Δt ham V15...V40 klassli betonni bug'lash yoki qizdirish jarayonida oldindan

uygʻotilgan kuchlanishni kamayishi.

$$\sigma_2 = 1,25 \Delta t$$

bu yerda: Δt ning aniq qiymati berilmasa 65 °S ga teng qilib olinadi.

Betonning klassi V45 va undan yuqori boʻlsa 1,25 koeffitsienti 1,0 ga almashtiriladi.

Faqat *stend mexanik* usulda tortilganda roʻy beradi. Qolgan usullarda $\sigma_2 = 0$ olinadi.

$$\sigma_2 = 0$$

3. Tortuvchi kurilmadagi ankerlar deformatsiyalanishi natijasida dastlabki kuchlanishni kamayishi:

